

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA'NAVIY
TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISHDA ROLLI O'YINLARNING
O'RNI**

**РОЛЬ ИГРЫ РОЛЕВЫЕ ИГРЫ В ФОРМИРОВАНИИ ДУХОВНОГО
ВООБРАЖЕНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ**

**THE ROLE OF THE GAME ROLE GAMES IN FORMING THE
SPIRITUAL IMAGINATION OF PRESCHOOL CHILDREN**

**Z.K.Fozilaxmedova Zafarabod tuman
5-sonli MTT tarbiyachisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy tasavvurlarini shakllantirishda rolli o'yinlarni axamiyati va o'yinning bola tarbiyasidagi o'rni xaqida fikrlar bildirilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль игры в формировании духовного воображения дошкольников и роль игры в воспитании детей.

Abstract: This article discusses the role of games in the formation of the spiritual imagination of preschool children and the role of play in the upbringing of children.

Kalit so'zlar: Maktabgacha yosh, o'yin, shakllantiris, tasavvur, bolalar, tarbiya, xususiyat.

Ключевые слова: Дошкольный возраст, игра, формирование, воображение, дети, воспитание, характер.

Key words: Preschool age, game, formation, imagination, children, upbringing, character.

Rolli o'yinlarning boshqa o'yinlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatga egaligi ularda syujet, rol va xayol qilingan vaziyatning mavjud bo'lishidir.

Bolalar biror narsa yoki voqyea to'g'risida yetarlicha tasavvurga ega bo'lgandagina syujet, fikr yuzaga keladi. Masalan, bolalar «paroxod» o'yinini o'yynamoqchi bo'lishdi. Bunga o'yinning qanday borishi to'g'risida syujet (voqyeaning borishi) kerak. Syujet bolalarning bilimiga bog'liq bo'ladi. Bolalar-da avval g'oya tug'iladi, keyin mazmuni rivojlanadi.

Ba'zan bolalar o'yining qanday borishini oldindan belgilab ola-dilar. Masalan, Afrikaga «bormoqchi» bo'lsalar, sayohat vaq-tida qilinadigan ishlarni oldindan belgilab oladilar. Bundan ko'rinish turibdiki, rolli o'yin jamoatchilik xususiyatiga ega, chunki bolalar bir-birlari bilan o'zaro muno-sabatda bo'ladilar. Rolli o'yinda har bir bola o'ziga olgan rolni bajaradi, masalan, ona, shofyor, tarbiyachi, enaga, artist va hokazo.

Rolli o'yinlarda didaktik, qoidalı-harakatlı o'yinlardagi singari qat'iy o'rnatilgan qoida bo'lmaydi. Bunda ko'pincha bolalar o'z xayol qilgan narsalari bo'yicha harakat qiladilar. Masalan, «kraketaga tushib oyga uchadilar», «paroxodda suzadilar», «kasalni davolaydilar» Ammo, bolalarning xayollari bilan o'ynashlari ularni real voqelikdan uzoqlashtirib yubormaydimi degan savol tug'iladi? Yo'q, bolalar o'zlari buning o'yinligini yaxshi biladilar. Bu «o'yin», bu faqat «o'yin-da», deydilar. Shu bilan birga bolalarning kechinmalari, hayajonlari, qilgan harakatlari hammasi rostakam, sidqidildan bo'ladi. Masalan, «doktor» roliagi bola kasal to'g'risida qayg'uradi va shunga o'xshashlar. Uyin mavzui bolalar olgan taassurotnipg kuchli, bolalarning qiziqishlari bilan belgilanadi. Uyinda bolalar aks ettiradigan ijtimoiy-siyosiy voqyealar bolalarning bilim doirasi va hayotiy tajribasiping kengayib borishiga bog'liq bo'ladi."

Rolli o'yinlarning mazmuni va mavzusi o'zgarishi bilan bir qatorda uning tuzilishi va o'yin shakllari o'zgaradi, bolalarning mustaqilligi va tashabbuskorligi ham o'sib boradi. Avvaliga bolalar o'z-o'zicha alohida-alohida o'ynaydilar. Sekin-asta rolli o'yinlarning paydo bo'lishi, o'yinda kishilar o'rtasidagi munosabatni aks ettirish birgalikda bajariladigan o'yinni keltirib chiqaradi. Avvaliga katta bo'lma-gan guruhchalar 2-3 kishidan bo'lib o'ynashadi, katta va tayyorlov guruhlariga kelib kattaroq jamoaga birlashadilar.

Bolalarda o'zbek xalqiga xos bo'lgan mehmondo'stlik kattalarni hurmat qilish, jamoat joylarida o'zini tuta bilish, kabi xislatlari tarkib topa boshlagan.

O'yin vaqtida bolalar hissiy axloqiy kechinmalarga tayanib o'yindagi obroz tuzilishining komponentlarini yorita oladilar.

Uyinda har xil rollar orqali o'zaro munosabatda bo'lish bolalarda o'rtoqlik munosabatlarini shakllantirishga yordam beradi.


O'yin muammozi dastlab "Avesto"da so'ngra Mahmud Qashg'ariyni "Lug'ati turk" asarida juda keng asoslab berilgan. Bolalarni ovunchog'i o'yinchoqlardir, ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy, axloqiy rivojida katta ahamiyat kasb etadi. O'yin –ma'naviy his –hayajonlar va tasavvurlarni, xulq xatti –harakat va axloq madaniyatini tarbiyalashning muhim vositasidir. O'yin ma'naviy his –hayajonlar va tasavvurlarni, xulqiy xatti–harakat va axloq madaniyatini tarbiyalashning muhim vositasidir. Bola kattalarning hayotini o'ziga ko'chirma qilib olar ekan, ularning tashvishlari yetadi, ijtimoiy axloq normalarini o'zlashtirib oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rang –barang harakatli, didaktik, milliy o'yinlarni o'ynaydilar. Ular didaktik o'yinlarni afzal ko'radilar, chunki ularda bizni o'rab turgan kundalik turmushdagi barcha narsalarni kishilarning hayot tarzi, mehnat faoliyatini, ularni o'zaro munosabatlarini hamda hozirgi zamon voqyealari tasvirlanadi. O'yinda bolalar o'zlarining kattalar hayoti ishtiroychilari bo'lishga bo'lgan qiziqishlarini, qizg'in intilishlarini qoldiradilar. Huddi onasidek qizchalarini (qo'ng'irchoqlarini) tarbiyalaydilar, vrachdek ularni davolaydilar, o'qituvchidek ularni o'qitardilar va hakozo. Tanlangan roli bolani butunlay chulg'ab oladi, ularning aqli va hissiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Ona mehribon va g'amxo'r, vrach e'tiborli va ziyrak, kamadir adolatli va talabchan, sotuvchi xushmuomala va ochiq ko'ngil, dengizchi qo'rmas va jasur. Agar bola bu rollarni qaysi birini tanlasa, u o'shaning mag'zini chaqib va obrazga kirib uni chuqur his etadi, o'zini shunga muvofiq tutadi.

Ijodiy o'yinlarning mazmunini bolalarning o'zлari o'ylab topadilar. Qoidali o'yinlar esa kattalar tomonidan yaratiladi va bola hayotiga olib kiritiladi. O'z navbatida o'yinlarning har ikkala guruhi ham o'zining xilma –xil ko'rinishlariga ega. Ijodiy o'yinlar guruhini milliy o'yinlar tashkil etadi.

Milliy didaktik o'yin bu xususiyatiga ko'ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Tevarak atrofdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o'yin mazmuniga asos bo'lib xizmat qiladi. Bolalarning tevarak –atrofdan olgan taassurotlari, tengdoshlari, kattalar faoliyatidan olgan bilimlari bu o'yin orqali qayta ishlanadi, to'ldiriladi. Bolalarning bunday o'yinlari tevarak –atrofdagi borliqni bilishning amaliy shaklidir. O'yinning syujeti o'z harakati, munosabatlari bilan bog'langan voqyea, hodisalar va ularning qatnashuvchilaridir. Rol –milliy o'yinning asosiy negizi hisoblanadi.

O'yin jarayonida juda ko'p gaplashishga, tortishishga, bahslashishga, aytib berishga to'g'ri keladi. Bular hammasi bola tafakkuri va hayolining rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Milliy o'yinlarni mazmunini rang barangligi ularni tasvirlash va tavsiflash zaruratini keltirib chiqaradi. Hozirgi paytda ko'pchilik pedagog va psixologlar o'yinlarning syujetiga ko'ra uch guruhga bo'ladilar:



O'yin bolada qanoatlanish, xursandchilik hissini paydo qiladi, shuning uchun bolani qiziqtirib, unda yaxshi kayfiyat uyg'otadi, bola organizmidagi hayotiy

faoliyatni yaxshilaydi. Bola o'ynayotganda har- xil harakatlar qiladi: yuguradi, sakraydi, tor joydan, ingichka taxtacha ustidan o'tadi, engashadi, yuqoriga tirlashib chiqadi. Bu harakatlarning hammasini bola be'malol, o'z hohishi bilan bajaradi, natijada bolaning muskullari pishiydi, u harakatni yengilroq, chaqqonroq bajaradigan bo'lib qoladi, jismoniy jihatdan chiniqib boradi. Milliy didaktik o'yinlar bolaning kuzatuvchanligini, qiziquvchanligini, bilishga qiziqishini oshirib, bilish doirasini rivojlantiradi, boyitadi. O'yinda bola o'z oldiga maqsad qo'yadi, bu boladan aql, idrok ishlatishni talab qiladi, hamda topaganlikka o'rgatadi.

ABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.** 1. G'. Jahongirov. O'zbek bolalar folklori. T.:
2. Kuronov M. Milliy tarbiya. Tosh "Ma'naviya" 2007 – 240 b.

3. Usmonxo'jayev T.S. va bosh. Maktabgacha yoshdagilar sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyatida, gimnastika va massaj (o'quv qo'llanma). "Farg'ona" nashriyoti. 2011 y – 137 b.

4. Usmonxujayev T.S., Meliyev X.A. Bolalarning asosiy harakat faoliyatiga oid mashqlar va ularni o'rgatish ulubiyoti. Tosh. O'z.MKB. 2011 y - 52 b. 1 – qism.

- 5.** ZiyoNET.www@mail.ru.